XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-39-86-5-73-K/21 Navbahor tuman hokimiligi

Navbahor tumanining

2022-yilgi mahalliy byudjetini

tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30 dekabrdagi 01/20-01-32/838-sonli xatini hamda Navoiy viloyati moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Navoiy viloyatining viloyat mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 44,8 mlrd.so‘m, xarajatlari 127,5 mlrd.so‘mga tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
3. Navbahor tumanining 2022-yil uchun tuman byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.
4. Tumanining tuman byudjetidan 2022-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy byudjetining taqsimotini urnatilgan tartibda tuman G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.
6. 2022-yil uchun tuman byudjet daromadlari va xarajatlari prognozlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.
7. Viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
8. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Tumani byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1202,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin. 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.Tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

10. Tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 7-ilovaga, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Xalq deputatlari tuman Kengashiga keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalariga tegishlicha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i,tamaki va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda tuman byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilingan 63 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlash hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan tushumlar viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlash 3- ilovaga asosan.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (L.Xayrullayev), Moliya bo‘limi mudiri (M.Jumaboyev), Navbahor tuman davlat soliq inspeksiyasi (F.Ergashov) tuman hokimliklari va mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Navbahor tuman davlat soliq inspeksiyasi (F.Ergashov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

15. Navbahor tuman davlat soliq inspeksiyasi, Navbahor tuman Kadastr agentligi bo‘limi 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,

investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Navbahor tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (L.Xayrullayev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

20. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Z.Qudratov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Л.Облакулов**

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
1-илова

Навбаҳор тумани маҳаллий бюджетининг даромадларининг		
2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари		
		минг сўмда
Т/Р	**Даромад турлари**	**Жами**
	ЖАМИ	**44 837 600**
1	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	0
2	Ягона солиқ тўловидан Давлат бюджетига ажратмалар	0
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	9 516 600
4	Қўшилган қиймат солиғи	0
5	Акциз солиғи, жами	0
	шу жумладан:	0
	- бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ	0
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	1 566 000
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	3 539 000
8	Юридик шахслар ер солиғи	3 457 000
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	5 316 000
10	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	1 215 000
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	1 456 000
12	Давлат божи	0
13	Жарималар	0
14	Ижара тўлови	0
15	Давлат ташкилотларининг соф фойдасидан даромад	0
16	Тадбиркорлик фаолияти билан шу-улланувчи юридик ва жисмоний шахслардан олинадиган катъий белгиланган даромад солиғи	130 000
17	Йиғимлар	
	Тақсимланувчи даромадлар	**18 642 000**
	шу жумладан:	
1	Алкогол ва тамаки учун акциз солиғи,	14623000
2	Мобил алока акциз солиғи	4019000

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-К/21-сон қарорига
2-илова

Навбахор туманининг 2022 йил ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган харажатларнинг умумий чекланган миқдорлари

№	Кўрсаткичлар	миқдори
Харажатлар миқдори, Жами		**127 461 301,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**127 461 301,0**
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	**0,0**
1	**Халқ таълими бўлими**	**7 173 640,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	7 173 640,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2	**Мактабгача таълим бўлими**	**4 076 931,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 076 931,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3	**Туман Тиббиёт бирлашмаси**	**56 704 559,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	56 704 559,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4	**Туман Маданият бўлими**	**2 110 115,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 110 115,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5	**Туман Жисмоний тарбия ва спорт бўлими**	**3 758 623,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 758 623,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6	**Туман қишлоқ хўжалиги бўлими**	**446 874,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	446 874,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7	**Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши**	**546 215,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	546 215,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8	**Туман ирригация бўлими**	**3 075 621,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 075 621,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9	**Туман Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими**	**1 610 014,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 610 014,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10	**Туман Ахоли бандлигига кўмаклашиш маркази**	**803 977,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	803 977,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11	**Туман Ободонлаштириш бошқармаси**	**9 631 739,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	9 631 739,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12	**Туман ҳокимлиги Молия бўлими**	**949 759,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	949 759,0
	шу жумладан: сақлаш харажатларига	
	Фуқароларга етказилган зарарни қоплаш	
	Малака ошириш харажатлари	
	Вилоятдан туман ва шаҳар маҳаллий бюджетларига бериладиган трансфертлар	
	Индексация маблағлари	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
13	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**6 012 326,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**6 012 326,0**
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
14	**Туман ҳокимлиги**	**30 560 908,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**30 560 908,0**
	Шу жумладан: сақлаш харажатлари	5 996 868,0
	Халқ қабулхонасини сақлаш харажатлари	140 865,0
	Ҳокимликларнинг заҳира жамғармалари	1 202 465,0
	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	17 494 374,0
	Ҳокимлик ижтимоий мослашиш маркази бўлимлари	49 527,0
	Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш	5 676 809,0

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
3-илова

Навбаҳор туман бюджетига умумдавлат солиқларидан ажратмалар меъёрлари

Фоизда

Т/Р	Шаҳар ва туманлар номи	Фойда солиғи	Айлан-мадан солиқ	Жисмо-ний шахс-лардан олина-диган даромад солиғи	Сув ресурс-ларидан фойдалан-ганлик учун солиқ	Қурилиш материал-лари бўйича ер қаъридан фойдалан-ганлик учун солиқ	Ижара тўловлари
1.	Навбаҳор тумани	0	0	30	100	100	0

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
4-илова

2022 йил учун туманнинг бюджет даромадлари ва харажатлари прогнозлари

Мингсўмда

Ҳудудномн	Даромад	Харажат
ЖАМИ	**44 837 600**	**127 461 301,0**
Навбаҳор тумани	**44 837 600**	**127 461 301,0**

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
5-илова

Вилоят бюджетидан туман маҳаллий бюджетига 2022 йилда ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

Минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
ЖАМИ	**82 623 701,0**
шундан	
Навбаҳор тумани	**82 623 701,0**

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
6-илова

Туман маҳаллий бюджетининг шахсий ғазна ҳисобварақларида турган бюджет маблағларининг йўл қўйиладиган энг кам миқдори

Минг сўмда

Т/р	**Ҳудудномн**	**Миқдори**
	ЖАМИ	**637 590,0**
	шундан	
1.	Навбаҳор тумани	637 590,0

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
7-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаганган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

№	Махалла фуқоролар йиғини номи	Коэффицент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси (1 гектар учун)
1	Арабхона МФЙ	0,7	20 300 000,0
2	Кўхрон МФЙ	0,7	20 300 000,0
3	Келачи МФЙ	1,0	29 000 000,0
4	Юқори Бешрабод МФЙ	0,7	20 300 000,0
5	Бешрабод МФЙ	1,0	29 000 000,0
6	Янги обод МФЙ	0,7	20 300 000,0
7	Оқ олтин МФЙ	0,7	20 300 000,0
8	Кескантерак МФЙ	0,7	20 300 000,0
9	Гулистон МФЙ	0,7	20 300 000,0
10	Қизилой МФЙ	0,7	20 300 000,0
11	Қоражон МФЙ	0,7	20 300 000,0
12	Янги хаёт МФЙ	0,7	20 300 000,0
13	Арабсарой МФЙ	0,7	20 300 000,0
14	Армижон МФЙ	0,7	20 300 000,0
15	Вомитан МФЙ	0,7	20 300 000,0
16	Дул-дул МФЙ	0,7	20 300 000,0
17	Карвон МФЙ	0,7	20 300 000,0
18	Сарой МФЙ	0,7	20 300 000,0
19	Совунгар МФЙ	0,7	20 300 000,0
20	Ҳашман МФЙ	0,7	20 300 000,0
21	Навкар МФЙ	0,7	20 300 000,0
22	Чорвоқгузар МФЙ	0,7	20 300 000,0
23	Сарбозор МФЙ	0,7	20 300 000,0
24	Қалқон ота МФЙ	0,7	20 300 000,0
25	Мирзо Улуғбек МФЙ	0,7	20 300 000,0
26	Уч тут МФЙ	0,7	20 300 000,0
27	Ёш куч МФЙ	0,7	20 300 000,0
28	Ҳаловаттепа МФЙ	0,7	20 300 000,0
29	Тошрабод МФЙ	0,7	20 300 000,0
30	Меҳнат МФЙ	0,7	20 300 000,0
31	Қизилрабод МФЙ	0,7	20 300 000,0
32	Ялтиробод МФЙ	0,7	20 300 000,0
33	Қизилтепа МФЙ	0,7	20 300 000,0
34	Янги куч МФЙ	0,7	20 300 000,0
35	Буркут МФЙ	0,7	20 300 000,0
36	Навбаҳор МФЙ	0,7	20 300 000,0
37	Ғужбоғтепа МФЙ	0,7	20 300 000,0
38	Ўзбекистон МФЙ	0,7	20 300 000,0
39	Янги йул МФЙ	0,7	20 300 000,0
40	Қоровултепа МФЙ	0,7	20 300 000,0
41	Пахтакор МФЙ	0,7	20 300 000,0

*Изох: Навоий вилояти бўйича юридик шахслар учун 1 гектар ер майдонига базавий солиқ ставкаси 32076895,0 сўм белгиланган .Халқ депцтатлари Навоий вилояти Кенгаши қарорига асосан Навбахор туманида базавий солиқ ставкаси нисбатан 0,9и коэффицент белгиланган (32076895,0*0,9=28869205,73) янги 2021 йил учун Навбахор туманида базавий солиқ ставкаси 28869205,73 сўмни ташкил қилади.*

Халқ депутатлари Навбаҳор туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-86-5-73-K/21-сон қарорига
8-илова

Жисмоний шахслар бўйича (Деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

№	Махалла фуқоролар йиғини номи	Коэффицент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси (1 кв.м учун)
1	Арабхона МФЙ	0,7	123,5
2	Кўхрон МФЙ	0,7	123,5
3	Келачи МФЙ	1,0	176,4
4	Юқори Бешрабод МФЙ	0,7	123,5
5	Бешрабод МФЙ	1,0	176,4
6	Янги обод МФЙ	0,7	123,5
7	Оқ олтин МФЙ	0,7	123,5
8	Кескантерак МФЙ	0,7	123,5
9	Гулистон МФЙ	0,7	123,5
10	Қизилой МФЙ	0,7	123,5
11	Қоражон МФЙ	0,7	123,5
12	Янги хаёт МФЙ	0,7	123,5
13	Арабсарой МФЙ	0,7	123,5
14	Армижон МФЙ	0,7	123,5
15	Вомитан МФЙ	0,7	123,5
16	Дул-дул МФЙ	0,7	123,5
17	Карвон МФЙ	0,7	123,5
18	Сарой МФЙ	0,7	123,5
19	Совунгар МФЙ	0,7	123,5
20	Ҳашман МФЙ	0,7	123,5
21	Навкар МФЙ	0,7	123,5
22	Чорвоқгузар МФЙ	0,7	123,5
23	Сарбозор МФЙ	0,7	123,5
24	Қалқон ота МФЙ	0,7	123,5
25	Мирзо Улуғбек МФЙ	0,7	123,5
26	Уч тут МФЙ	0,7	123,5
27	Ёш куч МФЙ	0,7	123,5
28	Ҳаловаттепа МФЙ	0,7	123,5
29	Тошрабод МФЙ	0,7	123,5
30	Меҳнат МФЙ	0,7	123,5
31	Қизилрабод МФЙ	0,7	123,5
32	Ялтиробод МФЙ	0,7	123,5
33	Қизилтепа МФЙ	0,7	123,5
34	Янги куч МФЙ	0,7	123,5
35	Буркут МФЙ	0,7	123,5
36	Навбаҳор МФЙ	0,7	123,5
37	Ғужбоғтепа МФЙ	0,7	123,5

38	Ўзбекистон МФЙ	0,7	123,5
39	Янги йул МФЙ	0,7	123,5
40	Қоровултепа МФЙ	0,7	123,5
41	Пахтакор МФЙ	0,7	123,5

*Изох: Навоий вилояти бўйича южисмгний шахслар учун 1 кв.м ер майдонига базавий солиқ ставкаси 260 сўм белгиланган .Халқ депцтатлари Навоий вилояти Кенгаши қарорига асосан Навбахор туманида базавий солиқ ставкаси нисбатан 0,68 коэффицент белгиланган (260*0,68=176,4) яънги 2021 йил учун Навбахор туманида базавий солиқ ставкаси 176,4 сўмни ташкил қилади.*